

GADOIY IJODINING O'RGANILISHI

Askarova Zebiniso Akbar qizi

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o'zbek tili adabiyoti 10-1 UZA-21 guruhi talabasi

E-mail: askarova.zebiniso@mail.ru

***Annotatsiya:** Maqolada XV asrning yetuk ijodkorlaridan biri Mavlono Gadoiy hayoti va merosining o'rganilishi aks etadi. Gadoiy ijodini o'rgangan olimlar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Gadoiy taxallusining qo'llanilish sabablari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** lirika, g'azal, badiiy mahorat, shoir, taxallus, tuyg'u, lirik meros, ishq.*

Klassik adabiyoti yo'nalishining shohbekati bo'lmish Hazrat Navoiyning turkiy she'riyati uchun zamin hozirlagan badiiy iste'dod sohiblaridan biri Mavlono Gadoiyli haqida qisqacha ma'lumot berganlar. Alisher Navoiyning ma'lumotiga qarab, S. G'aniyeva Gadoiy tug'ilgan yilini 1403-1404 yillar deb taxmin qiladi. Sababi "Majolis un-nafois" 1490-1491-yillarda yozilgan. E. Ahmadxo'jayev ham bu taxmini to'g'ri deb hisoblaydi. Agar ijodkor tarjimayi holi topilib, uning aniq tavalludi ma'lum bo'lganda ham bir yoki ikki yilga farq qilishi mumkin.

Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham turkiygo'y shoirlar haqida fikr yuritganda Gadoiy Sakkokiy, Xaydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy va Amiriylar qatorida tilga oladi: "To mulk arab va sort salomatidindin turk xonlarga intiqol topti, Huloquxon zamonidan sultoni sohibqiron Temuri Ko'rog'on zamonidindin farzandi xalafi Shohrux Sultonning zamoning oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidindin ham xushtab salomatine zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriylar va Gadoiydeklar"¹

Gadoiy ijodini birinchilardan bo'lib, Muhammad Fuodor Ko'prulu "To'qqizinchi o'ningchi (A. H.) asrlarda Chig'atoy shoirlari" nomli maqolasida Gadoiy ijodiy merosini o'rganilishiga turtki bo'ldi. Bu maqoladan keyin, E. Bolshe, A. Bombachi, Ya Ekman, o'zimizdan S. G'aniyeva, E.R. Rustamov, E. Ahmadxo'jayev, M. Rustamovlar Mavlono Gadoiy merosini o'rganishni boslashdi. Ko'rinib turibdiki, Navoiy davrida mashhur bo'lgan Gadoiy bizga o'tgan asrning 60-yillarida ma'lum

¹ Ergash Ochilov. Barhayot siymolar-Toshkent: O'zbekiston, 2012.-B.292.

bo'ldi. Kech o'rganilishiga sabab esa shoir devoning kech topilgani edi. Hozirgacha Gadoiyning yagona devoni Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. 1961-yil Yanosh Ekmani turk olimi Mavlono Gadoiyning 50 ta she'rini Istanbulda e'lon qiladi, so'ng o'zbek nashriyotiga S. G'aniyeva, E. Rustamov. E. Ahmadxo'jayevlarning maqola, monografiya va disertatsion taqdimotlar orqali shoir hayoti, merosi, o'sha zamon adabiy muhiti keng yoritilib berishga harakat qilishdi.

1973-yil fiologiya fanlari kandidati Erkin Ahmadxo'jayev G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyotida "Gadoiy devoni" nashr ettirdi. Mamlakatimizdan tashqarida bo'lgan adabiy yodgorliklardan biri, yagona nusxasi Parij Milliy kutubxonasida 981 raqami bilan saqlanayotgan shoir Gadoiy "Devon"i qo'lyozmasining mikrofilmi 1970-yilda O'zbekiston xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Hamid Sulaymonning tashabbusi va ko'magi bilan O'zCCR Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi xazinasiga kelib tushdi. Gadoiyning ushbu devoni yuqorida tilga olingan mikrofilm fotonusxasi asosida nashrga tayyorlandi.¹ Shoir devonining bu kamyob nusxasini butun holda ustida ishlash, uni fanga va millatga e'lon qilish Gadoiyning o'zbek mumtoz adabiyoti o'tmishidagi o'rnini, loyiq bahosini va qo'shgan merosini kengroq tadbiiq qilishga imkon berdi. "Gadoiy Devon"ining qo'lyozmasi XVI asr boshlarida nomi kelirilmagan kotib tomonidan tushunarli o'qiladigan nastaliq xatida yozilgan. Qo'lyozma barcha hajmi 161 bet bo'lib, shuning ilk qismida 95 betida "Lutfiy Devon" i, so'ng 66 beti "Gadoiy Devon"i keltirilgan. Qo'lyozmada shoir ijodining barchasi 1487 bayt yoki 2974 misradan iborat. "Gadoiy Devon"ida ijodkorning 230 g'azal, 1ta qasida, 1ta mustazod va 5 qit'asi, umumiy 237 ta she'ri joylashgan. Bu she'rlar, albatta, ijodkorning biroz kam bir asrlik hayotining har xil paytlarida ijod qilingan sermazmun, ijodida zikr etilgan avtobiografik lavhalar asosiy meros vazifasini o'taydi.

Ijodkorning haqiqiy ismi va qanday oilada dunyoga kelgani noma'lumdir. Gadoiy taxallusi bo'sa ham g'azallarida "Gado" tarzda ishlatilgan.

Ibtiloyi mehnat-u zulmat zaruratin chekar,

Kimki qilsa, ey Gado, sarchashmai hayvon ta'ma.

Taxallus yasash uchun qo'llaniladigan -iy va -viy qo'shimchalari bor. O'zagi undosh bilan tugagan so'zlardan taxallus yasalganda -iy qo'shimchasi qo'shilgan (Amiriy, Lutfiy, Husayniy). Lekin unli bilan tugagan so'zlarga ba'zan -iy, ba'zan -yi qo'shib turlicha yasalgan (Savdoyi, Gadoiy, Havoyi, Navoiy kabi). Bundan ko'rinib turibdiki, Gadoiy yasalgan, uning adabiy taxallusidir. Gadoiyning ma'nosiga har xil fikrlar bildirilgan. Ijodkor naqshbandiya tariqatiga mansub bo'lganligini ga'zallarining maqta'sida "Gado" taxallusini qo'llagan. "Gado" taxallusi orqali

¹ Erkin Ahmadxo'jayev. "Gadoiy devon" -Toshkent-1973-B.3.

o‘zining so‘fiyligiga ishora bor. Bu haqida tadqiqot olib brogan M.F. Ko‘prulu Gadoiy taxallusini quydagicha tushuntiradi: “Avtorning o‘ziga “Gadoiy va Gado” degan poetik nomini olganligiga ko‘ra, bizning shoir (ya‘ni Gadoiy – E.A.) so‘fimizga moyil bo‘lganki, bu narsa Abulqosim Bobir saroyida hukmron bo‘lgan umumiy tendensiyasiga muvofiqdir”¹. Adabiyotshunos E. Rustamov esa shoirning adabiy taxallusi – “Gadoiy” ko‘proq uning naqshbandiylik ordeni bilan aloqada bo‘lganligidan darak beradi, degan fikrni ilgari suradi².

Erkin Ahmadxo‘jayev: “Shoirning o‘ziga bunday taxallus tanlaganligining sababini, birinchidan, uning quyi tabaqadan yetishganligi, ikkinchidan, uning ishq, sevgi gadosi, shaydosi hamda g‘oyat zakovatli, kamtarin shaxs bo‘lganligidir deb tamin etish mumkin”.

Yarlig‘i ishqing bilan sultoni olammen, begim,
Nechakim bo‘lsam, ey husn mulkinda g‘ani.

Agar sen husn elining xonidursen,
Jahonda dog‘I mendek bir Gado yo‘q.³

Olimlarni fikriga tayansak, shoir butun hayotini gadolikda o‘tkazgan. Bunda ijokorning merosida zamonasidan, hayotidan, qismatidan arz qilib yozilgan g‘azallari misol bo‘ladi. Lekin shoir hayot sinovlarini oson hal qilib, oldinga ketishga harakat qiladi. Qachondir hayoti butunlay yaxshi tomonga o‘zarib ketishiga umid bilan qaraydi, shu ruhda qalam tebratib ijod qiladi va o‘z hayotlik davrida ulkan zafarlar qozonadi. Shoir asarlarida ko‘ramiki, Gadoiy Xurosonning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy maraz poytaxti Hirotda yashagan. Uning hayoti, qismati Hirotda va shu yerdagi adabiy muhit bo‘lgan shoirlar, fozillar, san‘atkorlar bilan bog‘langan bo‘lib, shoirning o‘zi ham shu muhitda serunum ijod qilgan. Chunonchi Gadoiy she‘rlarida Hirotda ko‘p bor madh etib, uning go‘zallaridan biriga ko‘ngil qo‘ygani ham xabar qiladi:

Zulfunga vobastamen, bu shaharda
Sensizin yo‘qsa manga bir jav Hiri.

Shoirning buyuk zamondoshi malikulkalom Mavlono Lutfiy va uning she‘rlari bilan ham tanish ekanligidan ham ma‘lumot aytgan:

Gar inoyat bo‘lsa haqdin, dog‘I sultondin nazar,
Bu Gadodek Lutfiy kim bo‘lg‘ayki, Salmon bo‘lmag‘ay.

¹ M.F. Köprülü, çagatay edebiyati, - “Islam ansikopedisi”, 3-cilt, 293-294-s.

² E. R. Rustamov. Узбекская поэзия в первине XI века, стр. 126- 145.

³ Erkin Ahmadxo‘jayev. “Gadoiy devon” -Toshkent-1973-B.6.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, Gadoiyning aniq tug‘ilgan va yashagan yillarini bilmasakda, uning she‘rlaridagi ma‘limotlarga va Navoiyga suyangan holda shoir XV asrning boshlaridan oxirigacha hayot kechirgan deb taxmin qilsak bo‘ladi.

Gadoiy lirikasi sirli va serqirra bo‘lganligi sababli, ko‘p olimlarimiz ijodiy merosi ustida ish olib borganlar. Masalan, Rustamov M. 1992-yil “Лексика языка дивана Гадаи” dissertatsiyasi, 2007-yilda Gadoiy devoning til xususiyatlarini va tarkibiy qismlarini eng mukammal qilib, “Gadoiy devonining lug‘ati va matni” kitobida jamladi. Bu kitobda shoir she‘rlarining maxsus lug‘ati ham tuzilgan.

Erkin Ahmadxo‘jayev Gadoiy ijodini o‘rganib, bir necha yil izlanishlari natijasida 1972-yil nomzodlik dissertatsiyasini yo‘qlaydi. 1978-yil “Gadoiy” monografiyasini chop etadi. Monografiyasida shoir ijodini o‘rganishdagi yutuqlarini batafsil yoritadi. Gadoiy ijodiy merosiniyurtimizda birinchi bor, 1965-yilda S. G‘aniyeva tomonidan “Shoir Gadoiy” nomi bilan chop etilgan. Bu kitobda ijodkorning 47 ta g‘azali va 1 ta mustazodi bor. 1973-yilda E. Ahmadxo‘jayevning “Gadoiy devon” ida Yanosh Ekman chop etgan nashrini qayta ishlab, 230 ta g‘azal, 5 ta qit‘a, 1 ta mustazoddan iborat nisbatdan mukammal kitobni chop ettiradi va 1986-yilda chop ettirilgan “Navoiyning nigohi tushgan” to‘plami shoirning 80 ta g‘azali va 1 ta mustazodi bor. Bundan so‘ng, Gadoiy lirikasi va boshqa shoirlarning ijodidan namunalar berilgan, “Hayot vasfi” to‘plami bor. Bunda Gadoiyning 223 ta g‘azali, 1 ta mustazod, 1 ta qasida va 5 ta to‘rtlik shaklidagi she‘rlar nashr ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono Gadoiy ijodiga qiziqish Alisher Navoiy paytidan boshlangan bo‘lib, bugungi kungacha tadqiqodchilar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Shoir g‘azallarini o‘qib tahlil qilar ekanmiz, undagi soddalik, serqirralik va xilma-xilligi bilan o‘ziga maftun etmasdan qo‘ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. B.7-bet.
2. Ergash Ochilov. Barhayot siymolar-Toshkent: O‘zbekiston, 2012.-B.292
3. M.F. Köprülü, çagatay edebiyati, - “Islam ansikopedisi”, 3-cilt 1969 .
4. Erkin Ahmadxo‘jayev. “Gadoiy devon”-Toshkent-1973-B.3.
5. E. R. Rustamov. Узбекская поэзия в первине XI века, стр. 126- 145.
6. Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi- Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti. 2017. B. 465-bet.